FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
10 (2)-son

UDK: 159.9:378.1

Iskandarov Nurbek,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

BO‘LAJAK PEDAGOGLAR MOTIVATSION SOHASINI BOSHQARISHDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarning emotsional intellekti, o‘zini o‘zi boshqarish xususiyatlari, kommunikativ-ijtimoiy kompetentligi hamda motivatsion sohasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda O‘zbekiston Milliy universiteti, Navoiy davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti va Buxoro pedagogika universitetining pedagogik yo‘nalishlarida tahsil olayotgan jami 557 nafar talaba ishtirok etgan. Tadqiqotda N. Xollning emotsional intellekt testi, A.A. Rean va V.A. Yakuninning talabalar o‘quv faoliyati motivlarini o‘rganish metodikasi hamda xulq-atvorni ongli boshqarish va kommunikativ-ijtimoiy kompetentlik ko‘rsatkichlarini baholash metodikalaridan foydalanilgan. Spirman rang korrelyatsiya koeffitsiyenti asosida emotsional intellekt komponentlari, kasbiy motivatsiya, o‘zini o‘zi boshqarish uslublari va kommunikativ-ijtimoiy kompetentlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganilgan. Natijalar emotsional xabardorlik, emotsiyalarni boshqarish, o‘z-o‘zini motivatsiyalash va empatiya bo‘lajak pedagoglarning kasbiy hamda akademik motivatsiyasi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarishning rejalashtirish, modellashtirish, dasturlash va natijalarni baholash komponentlari kasbiy motivlarning shakllanishida muhim psixologik omillar sifatida namoyon bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: emotsional intellekt, motivatsion soha, bo‘lajak pedagog, kasbiy motivatsiya, akademik motivatsiya, empatiya, emotsional xabardorlik, o‘zini o‘zi boshqarish, kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy-psixologik omillar, korrelyatsion tahlil.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УПРАВЛЕНИИ МОТИВАЦИОННОЙ СФЕРОЙ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация. В статье представлен эмпирический анализ взаимосвязи эмоционального интеллекта будущих педагогов, особенностей саморегуляции, коммуникативно-социальной компетентности и мотивационной сферы личности. В исследовании приняли участие 557 студентов педагогических направлений подготовки Национального университета Узбекистана, Навоийского государственного университета, Самаркандского государственного университета и Бухарского педагогического университета. В качестве диагностических инструментов использовались тест эмоционального интеллекта Н. Холла, методика А.А. Реана и В.А. Якунина по изучению мотивов учебной деятельности студентов, а также методики оценки осознанной саморегуляции поведения и коммуникативно-социальной компетентности. С помощью коэффициента ранговой корреляции Спирмена исследованы взаимосвязи между компонентами эмоционального интеллекта, профессиональной мотивацией, стилями саморегуляции и показателями коммуникативно-социальной компетентности. Полученные результаты свидетельствуют о взаимосвязи эмоциональной осведомлённости, управления эмоциями, самомотивации и эмпатии с профессиональной и академической мотивацией будущих педагогов. Кроме

того, планирование, моделирование, программирование и оценка результатов как компоненты саморегуляции проявляются в качестве значимых психологических факторов формирования профессиональных мотивов.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, мотивационная сфера, будущий педагог, профессиональная мотивация, академическая мотивация, эмпатия, эмоциональная осведомлённость, саморегуляция, коммуникативная компетентность, социально-психологические факторы, корреляционный анализ.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN MANAGING THE MOTIVATIONAL SPHERE OF FUTURE TEACHERS

Abstract. This article presents an empirical analysis of the relationships between emotional intelligence, self-regulation, communicative and social competence, and the motivational sphere of future teachers. The study involved 557 students enrolled in teacher education programs at the National University of Uzbekistan, Navoi State University, Samarkand State University, and Bukhara Pedagogical University. The diagnostic instruments included N. Hall's Emotional Intelligence Test, the methodology developed by A. A. Rean and V. A. Yakunin for studying students' academic learning motives, and assessment methods for conscious behavioral self-regulation and communicative-social competence. Spearman's rank correlation coefficient was used to examine the relationships between emotional intelligence components, professional motivation, self-regulation styles, and communicative-social competence indicators. The findings indicate that emotional awareness, emotion management, self-motivation, and empathy are associated with the academic and professional motivation of future teachers. Furthermore, planning, modeling, programming, and outcome evaluation as components of self-regulation emerge as important psychological factors in the formation of professional motives.

Keywords: emotional intelligence, motivational sphere, future teachers, professional motivation, academic motivation, empathy, emotional awareness, self-regulation, communicative competence, socio-psychological factors, correlation analysis.

KIRISH

Bo‘lajak pedagog shaxsining kasbiy shakllanishida motivatsion soha yetakchi psixologik tizimlardan biri hisoblanadi. Pedagogik faoliyat samaradorligi nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarga, balki shaxsning ichki motivlari, emotsional barqarorligi, irodaviy sifatlari hamda o‘z faoliyatini ongli ravishda boshqara olish qobiliyatiga ham bevosita bog‘liqdir. Shu sababli bo‘lajak pedagoglarning motivatsion sohasini shakllantiruvchi psixologik determinantlarni aniqlash zamonaviy ijtimoiy psixologiya va pedagogik psixologiyaning dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida talabalarning kasbiy bilimlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning emotsional intellekti, kommunikativ qobiliyatlari, o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalari va kasbiy motivatsiyasini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki pedagogik faoliyat doimiy ravishda shaxslararo munosabatlar, emotsional vaziyatlar, ijtimoiy mas’uliyat va turli pedagogik muammolar bilan bog‘liqdir.

Ilmiy tadqiqotlarda emotsional intellekt va motivatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, emotsional intellektning motivatsion sohani qaysi ijtimoiy-psixologik mexanizmlar orqali tartibga solishi masalasi yanada chuqurroq empirik tahlilni talab qiladi. Xususan, bo‘lajak pedagoglarda emotsional intellektning motivatsion jarayonlarga ta’siri o‘zini o‘zi boshqarish, kommunikativ kompetentlik va ijtimoiy moslashuv xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘lishi mumkin.

Bo‘lajak pedagog shaxsining motivatsion sohasi faqat individual ehtiyojlar va maqsadlar yig‘indisidan iborat emas. U ijtimoiy munosabatlar, guruhiy me’yorlar, kasbiy qadriyatlar, shaxslararo ta’sirlar va jamiyatdagi pedagog kasbining ijtimoiy mavqeyi bilan bog‘liq murakkab psixologik tizimdir. Shaxsning kasbiy yo‘nalganligi, o‘zini muayyan ijtimoiy guruh vakili sifatida idrok etishi, atrofdagilarning bahosi va qo‘llab-quvvatlashiga munosabati uning motivatsion tanlovlarini belgilovchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Emotsional intellekt shaxsning o‘z emotsional holatini anglashi va boshqarishi bilan cheklanmaydi. U boshqa kishilarning emotsional holatini tushunish, ijtimoiy vaziyatlarni adekvat baholash, shaxslararo munosabatlarda maqbul xulq-atvor strategiyalarini tanlash imkonini ham beradi. Shu jihatdan emotsional intellektni bo‘lajak pedagogning motivatsion sohasini shakllantiruvchi va tartibga soluvchi muhim psixologik resurs sifatida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi bo‘lajak pedagoglarda emotsional intellekt, o‘zini o‘zi boshqarish, kommunikativ-ijtimoiy kompetentlik hamda akademik va kasbiy motivatsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni empirik jihatdan aniqlash va ularning motivatsion sohani boshqarishdagi ijtimoiy-psixologik ahamiyatini asoslashdan iborat.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Emotsional intellekt tushunchasining ilmiy asoslari J. Mayer, P. Salovey va D. Caruso tadqiqotlarida ishlab chiqilgan. Ularning yondashuviga ko‘ra, emotsional intellekt emotsiyalarni idrok etish, ulardan fikrlash jarayonida foydalanish, emotsional mazmunni tushunish va emotsiyalarni boshqarish qobiliyatlarini qamrab oluvchi intellektual salohiyat hisoblanadi [7].

D. Goleman emotsional intellektni shaxsning o‘z emotsiyalarini anglash, ularni boshqarish, o‘zini motivatsiyalash, empatiya va ijtimoiy munosabatlarni samarali tashkil etish qobiliyatlari bilan bog‘laydi. Uning fikricha, mazkur sifatlar kasbiy faoliyat samaradorligi va shaxslararo munosabatlarni boshqarishda muhim o‘rin tutadi [1; 6].

P. Ekman tadqiqotlarida emotsiyalarni tanish, yuz ifodalari orqali hissiy holatlarni anglash va emotsional axborotni to‘g‘ri talqin qilish masalalari yoritilgan. Ushbu qarashlar pedagogik faoliyatda empatiya va kommunikativ munosabatlarning psixologik asoslarini tushunishda muhim ahamiyatga ega [4].

H. Gardnerning ko‘p intellekt nazariyasida shaxsning ichki kechinmalarini anglash va boshqa insonlarning psixologik holatini tushunish bilan bog‘liq intellektual qobiliyatlar alohida o‘rin egallaydi. Mazkur yondashuv emotsional intellektning shaxsiy va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq jihatlarini nazariy jihatdan izohlash imkonini beradi [5].

E. Sergienko va I. Vetrova tomonidan emotsional intellektni diagnostika qilishga oid tadqiqotlar emotsional qobiliyatlarni o‘lchash va ularning tarkibiy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan [2].

D. Dobrevning tadqiqotida emotsional intellekt va mehnat motivatsiyasi o‘rtasidagi munosabatlar professional faoliyat kontekstida tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot emotsional intellektning kasbiy motivatsiya va ish faoliyatiga ta’sirini o‘rganishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [3].

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekt shaxsning motivatsion faolligi, o‘zini o‘zi boshqarishi va ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishida muhim ahamiyatga ega. Biroq bo‘lajak pedagoglarda emotsional intellekt, kasbiy motivatsiya, kommunikativ-ijtimoiy kompetentlik va xulq-atvorni ongli boshqarish ko‘rsatkichlarini yagona tizimda o‘rganish masalasi qo‘shimcha empirik tadqiqotlarni talab qiladi.

Mazkur maqolada aynan shu o‘zaro aloqadorlikni aniqlashga e’tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot bo‘lajak pedagoglarning emotsional intellekti va motivatsion sohasi o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarni aniqlashga yo‘naltirilgan empirik tadqiqot sifatida tashkil etilgan.

Tadqiqotda O‘zbekiston Milliy universiteti, Navoiy davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti va Buxoro pedagogika universitetining pedagogik yo‘nalishlarida tahsil olayotgan jami 557 nafar talaba ishtirok etgan.

Tadqiqot jarayonida quyidagi diagnostik metodikalardan foydalanilgan:

1. N. Xollning emotsional intellekt testi. Mazkur metodika orqali emotsional xabardorlik, emotsiyalarni boshqarish, o‘z-o‘zini motivatsiyalash, empatiya va boshqa kishilarning emotsiyalarini anglash ko‘rsatkichlari o‘rganilgan.

2. A.A. Rean va V.A. Yakuninning o‘quv faoliyati motivlarini o‘rganish metodikasi. Ushbu metodika yordamida talabalarning akademik motivatsiyasi va o‘quv faoliyatiga munosabati tahlil qilingan.

3. Xulq-atvorni ongli boshqarish uslublarini baholash metodikasi. Rejalashtirish, modellashtirish, dasturlash, natijalarni baholash, moslashuvchanlik va mustaqillik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan.

4. Pedagog kasbini tanlashga ta’sir qiluvchi omillarni baholash. Pedagogik qobiliyatni idrok etish, kasbning ichki qadriyati, kasbiy barqarorlik, kasbiy mobillik, ijtimoiy ta’sir, jamiyatga hissa qo‘shish, bolalar bilan ishlash va kasb tanlovidan qoniqish kabi motivlar tahlil qilingan.

5. Kommunikativ-ijtimoiy kompetentlik ko‘rsatkichlarini baholash. Muloqotchanlik, mantiqiy tafakkur, emotsional barqarorlik, hayotdan zavqlanish, yangi g‘oyalarga ochiqlik, mustaqillik, nazorat va ijtimoiy xulq-atvor xususiyatlari o‘rganilgan.

Tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlashda Spirman rang korrelyatsiya koeffitsiyentidan foydalanilgan. Mazkur mezon o‘rganilayotgan psixologik ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi monoton bog‘liqliklarni aniqlash imkonini beradi.

Tahlil jarayonida statistik ahamiyatlilik darajalari pIzoh: * p

Korrelyatsion tahlil natijalari bo‘lajak pedagoglarda kasb tanlash motivlari va o‘zini o‘zi boshqarish jarayonlari o‘rtasida uzviy munosabat mavjudligini ko‘rsatdi.


Xususan, pedagogik qobiliyatni idrok etish motivi dasturlash (Rs=0,54; pIzoh: * p

EI va kommunikativ-ijtimoiy kompetentlik omillari o‘rtasidagi Spirman korrelyatsion tahlili aksariyat ko‘rsatkichlar orasida statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy bog‘liqliklar mavjudligini ko‘rsatdi.

A omil — muloqotchanlik ko‘rsatkichi emotsional xabardorlik (Rs=0,44; pIzoh: * p

Spirman korrelyatsion tahlili bo‘lajak pedagoglarning akademik motivatsiyasi va pedagogik kasbni tanlash motivlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli munosabatlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Ichki motivatsiya pedagogik kasbning mazmuni va ijtimoiy qadriyatlarini ifodalovchi motivlar bilan nisbatan yuqori ijobiy bog‘liqlikni namoyon etdi. Jumladan, pedagogik qobiliyatni idrok etish (Rs=0,645; p



1-rasm. Bo‘lajak pedagoglar motivatsion sohasining psixologik mexanizmlari (muallifning nazariy umumlashtirishi)

Tadqiqot natijalari emotsional intellekt, ongli o‘zini o‘zi boshqarish va kommunikativ-ijtimoiy kompetentlik bo‘lajak pedagoglarning motivatsion sohasi bilan o‘zaro aloqador psixologik tuzilmalar ekanligini ko‘rsatdi.

Emotsional intellekt shaxsning o‘z emotsiyalarini anglash, ularni boshqarish va boshqa kishilarning hissiy holatini tushunish imkoniyatlarini ta’minlaydi. Mazkur kompetensiyalar kommunikativ-ijtimoiy kompetentlikning rivojlanishi uchun psixologik asos yaratadi.

O‘zini o‘zi boshqarish esa shaxsning o‘z oldiga maqsad qo‘yishi, faoliyatni rejalashtirishi, kutilayotgan natijalarni modellashtirishi va amalga oshirilgan harakatlarni baholash imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Bu jarayonlar kasbiy motivatsiyaning barqarorligi va maqsadga yo‘naltirilganligini qo‘llab-quvvatlaydi.

Motivatsion soha, o‘z navbatida, ichki va tashqi motivatsiya, amotivatsiya hamda pedagogik kasbni tanlashga ta’sir qiluvchi qadriyatlar va ijtimoiy omillar orqali namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari asosida emotsional intellektni bo‘lajak pedagoglarning motivatsion sohasini shakllantirish bilan bog‘liq muhim psixologik resurs sifatida talqin qilish mumkin.

MUHOKAMA

Olingan empirik natijalar emotsional intellekt va bo‘lajak pedagoglarning motivatsion sohasi o‘rtasidagi munosabatlar murakkab ijtimoiy-psixologik mexanizmlar orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Birinchidan, emotsional intellektning o‘z-o‘zini motivatsiyalash, empatiya va emotsiyalarni boshqarish komponentlari kommunikativ-ijtimoiy kompetentlikning bir qator ko‘rsatkichlari bilan ijobiy bog‘langan. Bu holat emotsional jarayonlarni anglash va boshqarish qobiliyatlari pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan muloqot, hamkorlik va ijtimoiy moslashuv sifatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, kasbiy motivlar va ongli o‘zini o‘zi boshqarish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘lajak pedagoglarning kasbiy yo‘nalganligi faoliyatni rejalashtirish, modellashtirish va natijalarni baholash qobiliyatlari bilan hamohang rivojlanishini anglatadi. Ayniqsa, kasbiy mobillik va moslashuvchanlik o‘rtasidagi yuqori korrelyatsiya kasbiy rivojlanishga intilishning o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyati bilan aloqadorligini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, ichki motivatsiyaning kasbiy qadriyatlar, pedagogik qobiliyatni idrok etish va kasb tanlovidan qoniqish bilan ijobiy bog‘liqligi pedagogik kasbni ongli ravishda tanlashning ahamiyatini namoyon etadi. Amotivatsiyaning mazkur ko‘rsatkichlar bilan salbiy aloqasi esa kasbiy faoliyat mazmunini shaxsiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish motivatsion barqarorlik uchun muhim ekanligini anglatadi.

To‘rtinchidan, kommunikativ-ijtimoiy kompetentlik va emotsional intellekt o‘rtasidagi aloqalar bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda faqat nazariy bilimlarni shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan, ularning emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ham e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini talqin qilishda ayrim metodologik cheklovlarni hisobga olish lozim. Birinchidan, korrelyatsion tahlil ko‘rsatkichlar

o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlaydi, biroq sabab-oqibat munosabatlarini to‘liq isbotlamaydi. Ikkinchidan, tadqiqotda foydalanilgan diagnostik metodikalarning ishonchliligi va validligi, tanlanmaning oliy ta’lim muassasalari hamda kurslar bo‘yicha taqsimoti qo‘shimcha ravishda bayon qilinishi maqsadga muvofiq. Uchinchidan, motivatsion sohani boshqarishning taklif etilgan modeli korrelyatsion natijalar asosida shakllantirilgan nazariy umumlashtirish bo‘lib, uning mediator va prediktor mexanizmlari alohida regressiya yoki strukturaviy modellashtirish orqali tekshirilishi lozim.

Demak, bo‘lajak pedagoglarning motivatsion sohasini rivojlantirishda emotsional intellekt, o‘zini o‘zi boshqarish va kommunikativ-ijtimoiy kompetentlikni o‘zaro uyg‘unlikda shakllantirish muhim pedagogik-psixologik vazifa hisoblanadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Emotsional intellekt bo‘lajak pedagoglarning motivatsion sohasini shakllantirish bilan bog‘liq muhim ijtimoiy-psixologik omillardan biri hisoblanadi. Uning emotsional xabardorlik, emotsiyalarni boshqarish, o‘z-o‘zini motivatsiyalash va empatiya komponentlari shaxsning kommunikativ-ijtimoiy kompetentligi bilan uzviy aloqadorlikni namoyon etadi.

2. Kasbiy motivatsiya va ongli o‘zini o‘zi boshqarish o‘rtasidagi bog‘liqliklar rejalashtirish, modellashtirish, dasturlash va moslashuvchanlik ko‘nikmalarining pedagogik kasbga yo‘nalganlikni qo‘llab-quvvatlashdagi ahamiyatini ko‘rsatdi.

3. Ichki motivatsiya pedagogik kasbning ichki qadriyati, kasbiy qobiliyatni idrok etish, jamiyatga hissa qo‘shish va kasb tanlovidan qoniqish kabi omillar bilan ijobiy bog‘liqlikka ega. Amotivatsiya esa ushbu motivlarning aksariyati bilan salbiy munosabatni namoyon etdi.

4. Kommunikativ-ijtimoiy kompetentlikning konstruktiv jihatlari, xususan, muloqotchanlik, emotsional barqarorlik, yangi g‘oyalarga ochiqlik va nazorat ko‘rsatkichlari emotsional intellekt komponentlari bilan ijobiy bog‘liq ekanligi aniqlandi.

5. Bo‘lajak pedagoglarning motivatsion sohasini rivojlantirishda emotsional intellekt, ongli o‘zini o‘zi boshqarish va kommunikativ-ijtimoiy kompetentlikni kompleks rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik-pedagogik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

6. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida emotsional intellektni rivojlantiruvchi treninglar, empatiyaga asoslangan mashg‘ulotlar, kasbiy refleksiya, kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish va o‘zini o‘zi boshqarish mashqlarini tizimli tashkil etish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Shunday qilib, emotsional intellekt bo‘lajak pedagog shaxsining motivatsion, kommunikativ va o‘zini o‘zi boshqarish tizimlarini o‘zaro bog‘lovchi muhim

psixologik resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Uni maqsadli rivojlantirish pedagogik kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning psixologik samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Goleman D. An EI-Based Theory of Performance // The Emotionally Intelligent Workplace / Ed. C. Cherniss, D. Goleman. – 2001.
2. Сергиенко Е.А., Ветрова И.И. Тест Майера, Соловея и Карузо. – Москва: РАН, 2010. – 175 с.
3. Dobrev D. Emotional Intelligence and Work Motivation of Professionals in Private and Public Organizations. – Sofia: University Press, 2023. – 107 p.
4. Ekman P. Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication and Emotional Life. – New York: Times Books, 2002. – 288 p.
5. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983. – 440 p.
6. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 2009. – 506 p.
7. Mayer J.D., Salovey P., Caruso D.R. Emotional Intelligence: Theory, Findings, and Implications // Psychological Inquiry. – 2004. – Vol. 15, No. 3. – P. 197–215.